



ZOMIN VOHASI HAQIDAGI YOZMA MANBALAR TAVSIFI

Bashirqulova Sevinch Oybek qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zomin vohasining qadimgi va o'rta asrlar tarixiga oid yozma manbalar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Yunon, so'g'd va arab muarrixlari asarlaridagi ma'lumotlar asosida Zominning Ustrushona tarixidagi siyosiy, iqtisodiy va geografik o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, vohaning savdo yo'llari, dehqonchilik va chorvachilik aloqalaridagi ahamiyati manbalar qiyosiy tahlili orqali ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Zomin vohasi, Ustrushona mamlakati, yozma manbalar, arab muarrixlari, yunon manbalari, so'g'dlar, Buyuk Ipak yo'li, savdo yo'llari, dehqonchilik va chorvachilik, o'g'uzlar yurti, tarixiy geografiya.

Zomin vohasi qadimgi va o'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida muhim strategik, iqtisodiy va madaniy ahamiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Ustrushona tarixiy-madaniy mintaqasining tarkibiy qismi bo'lgan ushbu voha Buyuk Ipak yo'lining ichki tarmoqlaridan birida joylashgan bo'lib, Sug'diyona, Farg'ona va Sirdaryo bo'yi dashtlari o'rtasidagi aloqalarda muhim bog'lovchi vazifani bajargan. Zomin vohasi haqidagi ma'lumotlar qadimgi yunon mualliflari, so'g'd hujjatlari hamda arab geograflari va muarrixlari asarlarida saqlanib qolgan bo'lib, ularni kompleks tahlil qilish mintaq tarixini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Qadimgi yunon manbalarida Ustrushona va Zomin hududi. Ustrushona va unga tutash hududlar haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlar qadimgi yunon tarixchilari asarlarida uchraydi. Yunon manbalarida Sirdaryo (Yaksart) havzasi sak qabilalari konfederatsiyasi joylashgan hudud sifatida tavsiflanadi. Bu manbalarda saklarning Sug'diyona bilan qo'shnichiligi, Sug'dning sharqiy chegaralari Sirdaryo



bo'yi dashtlari bilan tutashgani, Yaksart daryosi esa ko'chmanchi jangovar qabilalar bilan o'troq sug'd aholisini ajratib turgan tabiiy chegara bo'lgani ta'kidlanadi[1].

Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa yurishlari davrida Sirdaryo bo'ylarida yuz bergan harbiy to'qnashuvlar ham aynan shu hududlar bilan bog'liq. Yunon muarrixlari saklarning harbiy mahorati va ularning Aleksandr qo'shinlariga ko'rsatgan qarshiligini alohida qayd etadilar[2]. Ushbu davrda Ustrushona, jumladan Zomin hududi Sug'diyona ta'siri doirasida bo'lgani ilmiy adabiyotlarda keng e'tirof etiladi[3].

Arab yozma manbalarida Zomin vohasining tavsifi. Zomin vohasi haqidagi nisbatan aniq va tizimli ma'lumotlar arab geograflari va muarrixlarining IX–X asrlarga oid asarlarida uchraydi. Ular Ustrushona viloyatini tavsiflar ekan, Bunjikatdan keyin Zomini muhim shahar va rustoq markazi sifatida tilga oladilar[4]. Zomin Farg'ona va Sug'dni bog'lovchi yirik karvon yo'li bo'yida, tog'oldi mintaqasida joylashgani bilan ajralib turgan.

Ibn Havqalning ma'lumotlariga ko'ra, Zominning boshqa nomi Savsanda bo'lib, eski shahar xarobaga aylangan, bozor va jome masjidi esa yangi shaharga ko'chirilgan. Shunga qaramay, Zomin Sug'ddan Farg'onaga o'tuvchi savdogarlar uchun muhim to'xtash maskani bo'lib qolgan[5]. Muallif shahar atrofida oqar suvlar, bog'lar, uzumzorlar va ekinzorlar mavjudligini qayd etadi, bu esa vohada sug'orma dehqonchilik rivojlanganidan dalolat beradi.

Zomin nomining etimologiyasi va ilk tilga olinishi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, Zomin toponimi so'g'd tiliga mansub bo'lib, *z'yh* — “yer” va *men(a)* — “qishloq”, “mahalla” ma'nolaridan tarkib topgan[6]. Bu atama ilk bor VIII asr boshlariga oid Panjikent hokimi Divashtich arxiv hujjatlarida qayd etilgan bo'lib, Zominning arab istilosidan avval ham muhim aholi manzili bo'lganini ko'rsatadi.

IX asr muarrix Yoqubiyning yozishicha, Zomin va uning atroflarida ko'plab rabotlar mavjud bo'lib, ular savdo yo'llarini va hudud xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan[7].



O'rta asrlarda Zominning geografik va siyosiy ahamiyati haqida aytadigan bo'lsak, Ibn Xurdodbex Zominni Shosh, Farg'ona va turklar mamlakatiga olib boruvchi yo'llar kesishgan muhim chorraha sifatida ta'riflaydi. Ayrim manbalarda Zomin shahri mudofaa devorlariga ega bo'lmagan deb ko'rsatilsa, X asrga oid "Hudud ul-olam" asarida shahriston mustahkam devorlar bilan o'ralgani qayd etiladi[6]. Ushbu tafovut shahar tuzilishining turli davrlardagi holati bilan izohlanadi.

Zominning geografik joylashuvi chorvador va dehqon aholi o'rtasidagi aloqalar rivojlanishiga qulay sharoit yaratgan. Ibn Havqal shaharning bir tomoni Ustrushona tog'lariga, ikkinchi tomoni esa o'g'uzlar yashaydigan dashtlarga tutash ekanini yozadi. Tadqiqotchi N. N. Negmatov ham IX–X asrlarda o'g'uz qabilalari Ustrushonaning shimoli-g'arbiy hududlari va Sirdaryo bo'ylab ko'chib yurganini ta'kidlaydi[2].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Yozma manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Zomin vohasi qadimgi va o'rta asrlarda Ustrushonaning muhim siyosiy, iqtisodiy va strategik markazlaridan biri bo'lgan. Uning qulay geografik o'рни, rivojlangan dehqonchilik va chorvachilik tizimi, savdo yo'llaridagi ahamiyati vohani Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin egallashiga sabab bo'lgan. Arab va qadimgi manbalardagi ma'lumotlar Zomin tarixini arxeologik tadqiqotlar bilan uyg'un holda o'rganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bartold V. V. Turkiston mo'g'ullar istilosigacha. Toshkent: Fan, 1963. 215–223-b.
2. Negmatov N. N. Ustrushona ilk o'rta asrlarda. Toshkent: Fan, 1984. 45–62-b.
3. Asqarov A. A. O'zbekiston xalqlari tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1994. 98–105-b.
4. Ibn Havqal. Yer surati (Surat al-arz) / O'zbekcha tarjima. Toshkent. 1983. 312-318-b.
5. Ibn Xurdodbex. Yo'llar va mamlakatlar kitobi / Tarjima. Toshkent. 1980. 67–71-b.
6. Hudud ul-olam. Movarounnahr va qo'shni mamlakatlar tavsifi. Toshkent. 1968. 102-104-b.
7. Yoqubiy. Mamlakatlar kitobi / Tarjima. – Toshkent: Fan, 1985. 56–58-b.